

**-sonli Hisob-kitoblarni “Bank-Mijoz” dasturiy majmuasi
orqali amalga oshirish bo‘yicha hizmat ko‘rsatish shartnomasi**

Toshkent sh.

201__yil “____” ____

“Asaka” bank (OAJ) _____ tomondan (bundan keyin “BANK” deb yuritiladi), _____ boshlig‘i _____ ikkinchi tomondan (bundan keyin “MIJOZ” deb yuritiladi) ushbu shartnomani quyidagilar shartlarda tuzdilar:

1.Shartnoma mazmuni

1.1.Bank-Mijoz dasturiy majmuasining (keyingi o‘rinlarda DM deb yuritiladi) asosiy vazifalari quyiidagilardan iborat:

- Elektron pul hisob-kitob hujjatlarini tayyorlash;
- Ma’lumotlarni shifrlash hamda elektron imzo yordamida tasdiqlash;
- Internet orqali bank bilan aloqa o‘rnatish;
- Ma’lumotlarni bosmaga berish;

1.2. Mijoz to‘lovlarini o‘z hisob raqamidan “Bank-Mijoz” DM orqali faqat to‘lov topshiriqnomalari orqali amalga oshiradi.

1.3. Bank tarafidan Mijozga xizmat ko‘rsatish unga Bank bilan elektron aloqa o‘rnatish uchun Internet manzil taqdim etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

1.4. Bank va Mijoz “Bank-Mijoz” DMda qo‘llaniladigan pul-hisob kitob hujjatlarni jo‘natilish uslubini va elektron raqamli imzoni tan oladilar.

1.5. Mijoz Bankga aloqa kanallari orqali kelib tushgan elektron pul-hisob kitob hujjatlarni Markaziy bankga yuborishni ishonib topshiradi. “Bank-Mijoz” DM orqali qabul qilingan, qog‘ozdag‘i hisob kitob hujjat asosida yaratilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan Elektron to‘lov topshiriqnomasi hisob kitob hujjatining asliga tenglashtiriladi va u bilan bir hil yuridik kuchga ega deb tan olinadi.

1.6. Bank yoki Mijozda elektron hujjat almashinuviga to‘sinq bo‘lishi bilan bog‘liq biror vaziyat yuzaga kelgan taqdirda, Mijozlarga tegishli hujjatlarni qog‘oz shaklida taqdim etish “Bank hisob-raqamiga xizmat ko‘rsatish” shartnomasida ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

1.7. Mazkur shartnoma ____sonli «____» _____ yilda tasdiqlanagan “Bank hisob-raqamiga xizmat ko‘rsatish” shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi.

2. Bankning majburiyatları

2.1. Mijoz ariza taqdim etib, o‘zining “Bank-Mijoz” DMga ularishga texnik jihatdan tayyorligini ma‘lum qilgandan so‘ng, bank 15 (o‘n besh) kun mobaynida:

- “Bank-Mijoz” DMda ishslash uchun dasturiy ta’mnotni o‘rnatish;
- Hisob raqam egasini identifikatsiyalash, Mijozning electron raqamli imzosi orqali kelgan electron hujjatlarni haqiqiyligini tekshirish;
- Kelgan va ketgan electron hujjatlarni jurnalda ro‘yhatga olish;
- “Bank-Mijoz” DMda ishslash uchun xodimlarni o‘qitish majburiyatini oladi.

2.2. Bank tomonidan electron hujjatlarni qabul qilish ish kunlarida amalga oshiriladi:

- Banklararo elektron to‘lovlar uchun 09.00 dan 14.00 gacha;
- Bank ichidagi elektron to‘lovlar uchun - 09.00 dan 15.00 gacha;

Bank yuqorida ko‘rsatilgan vaqt mobaynida taqdim etilgan electron pul hisob-kitob hujjatlarni olingan kuni ijroga qabul qilish majburiyatini oladi. Belgilangan vaqtdan kech yuyborilgan hujjatlar to‘lovga qabul qilinmaydi.

2.3. Elektron to‘lov pul hisob-kitobi hujjatlari bank tomonidan faqatgina mazkur shartnomaning 3.8 bandiga muvoviq hamda Mijoz mablaglarini tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan rahbarni electron imzosiga asosan qabul qilinadi.

2.4. Mizozning hisob-raqamlariga noqonuniy kirish havfi tug‘ilganda, bank darxol “Bank-Mijoz” DMni vaziyat hal etilgunga qadar berkitadi. “Bank-Mijoz” DM faoliyatini qaytadan tiklash faqatgina Mijoz bilan kelishilgan holda electron imzolar va shifirlash kaliti almashtirilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

2.5. Bank Mijozdan electron imzosiz kelgan electron to‘lov hujjatlarini to‘lovga qabul qilmaslikka va Mijozga sababini ko‘rsatgan holda electron ko‘rinishdagi rad javobini yuborishga mas’uldir.

2.6. Bank Mijoz tomonidan belgilangan shaklga va kriptogrammaga amal qilmasdan yuborilgan electron to‘lov hujjatlarini qabul qilnaslikka mas’uldir.

2.7. Bank Mijozga electron hujjatlar faylini olganligini ma'lum qiluvchi electron imzo qo'yilgan xabarni yuborishga mas'uldir. Xabarda ko'rsatilgan vaqt hujjatlarni qabul qilish vaqtini bildiradi. Hujjatlarni qabul qilish vaqtida tafovut yuzaga kelganda Taraflar tomonidan Bank apparat qurilmalarida aks etgan joriy vaqt aniq vaqt deb qabul qilinadi.

2.8. Mijoz tomonidan electron to'lov hujjatlarini noto'g'ri rasmiylashtirganligi, uchinchi saxslarga electron imzo va maxfiy kodlarni berganligi oqibatida yuzaga kelgan zarar uchun Bank mas'ul emas.

2.9. Mijoz taravidagi dasturiy ta'minot Mijozga bog'liq bo'limgan sabablar oqibatida ishlamagan taqdirda, Bank Mijozning buyurtmasiga asosan 5 (besh) ish kunida dasturiy ta'minotni normal ish holatini tiklashga mas'uldir.

3. Mijozning majburiyatları

3.1. "Bank-Mijoz" DM da ishslash uchun mijoz o'zining quyidagi texnikaga ega bo'lishi lozim:

- Windows XP operatsion sistema o'rnatilgan personal kompyuter
- Aktual bazaga ega bo'lgan antivirus
- Internetga chiqish imkonи
- Printer
- iKey-kalit (ERI-elektron raqamli imzo)

3.2. Zaruriyat bo'lganda, o'rnatilgan kommunikatsion qurilma yoki boshqa foydalaniladigan aloqa tizimlarini ro'yhatga olinishi hamda ishlatilishi Mijoz zimmasida bo'ladi

3.3. Mijoz barcha ma'lumotlarning xavfsizligini va texnik ximoyasini ta'minlash qoidalariiga amal qilishga mas'ul. Uchunchi shaxslarning "Bank-Mijoz" DM ishslashni chegaralash maqsadida ichki rejim ishlab chiq'ish hamda iKey-kalitini moliyaviy hujjatlarni imzolash xuquqi bo'limgan shahslardan chegaralash.

3.4. Mijoz pul hisob hujjatlarini asl nusxasiga asosan ma'lumotlarni kompyuterga kiritadi. Elektron pul hisob-kitob hujjatlarining rekvezitlari uchun mazkur hujjatga elektron raqamli imzo qo'ygan xodim javobgar.

3.5. Shahsiy schetlar ko'rchirmalarini qabul qilishda Mijoz yechilgan va kelib tushgan mablag'lar mos kelishimi elektron to'lov hujjatlar asosida solishtiradi.

3.6. Elektron raqamli imzo va Bankga jo'natilayotgan ma'lumotlarning saqlovini ta'minlovchi ustivor elementlar butligi va havfsizligini maqsadga nomuvofiq ishlatilishdan ta'minlash.

3.7. Mijozning farmoyishi assosida "Bank-Mijoz" DM dan foydalanishga vakolat berilgan shaxslarga elektron imzoli raqamdan foydalanishini ta'minlash.

3.8. I-key kaliti yo'qotilgan va kompyuterga ruxsatsiz kirish xavfini yuzaga keltiruvchi boshqa hatarli holatlar yuzaga kelganda Mijoz darhol Bankni ogoh etadi. "Bank-Mijoz" DM ishini qayta tiklash Mijozning I-key kalit va paroli almashtirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

3.9. Mijoz hujjatlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan to'ldirishi lozim.

3.10. "Bank-Mijoz" DM orqali yuborilgan Elektron to'lov topshiriqnomasining asl qog'oz nusxasi o'rnatilgan tartibda Mijozda saqlanadi.

3.11. Mijoz to'lov topshiriqnomasini elektron va qog'oz shaklini rasmiylashtirish, saqlov va ularni o'zaro mosligi to'g'rilinga javobgardir.

3.12. Mijoz har bir amaliyot kuni uchun elektron shaklidagi ko'chirmalarini olishi va ularagini hamda to'lov hujjatlar asl nusxalaridagi ma'lumotlarni tekshirgan holda nazorat qilishi mumkin. Elektron hujjatlar ko'chirmalarini olish imkonи bo'limgan yoki ko'chirmadagi ma'lumotlar asl nusxa bilan mos kelmagan holatlarda Mijoz bu haqida Bankni har qanday yo'l bilan ogoh etishi zarur.

3.13. Mijoz bir kun oldingi amaliyot kuni uchun o'z omonat hisobraqamlari oboroti va qoldiqlarini Bank bilan har kuni solishtirishi lozim. Nomuvofiqlik holatlari yuz berganda Mijoz Bankni ogoh etadi. Nomuvofiqliklar sababi Bank tomonidan aniqlanib, Mijozning ma'lumotlari Bankdagи ma'lumotlar bilan muvofiqlashtiriladi.

3.14. Mijoz 1-Kartoteka holati to'g'risidagi hisobotni Mijoz hisobraqamiga kelib tushgan to'lov topshiriqnomalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish maqsadida har kuni shakllantirishi lozim. Mazkur hisobotda keltirilgan ma'lumotlar Bank xabarnomasi bilan tenglashtiriladi. Hujjatning 1-Kartotekaga kelib tushganidan so'ng uch ish kuni o'tganidan so'ng Mijoz aktseptdan yozma ravishda bosh tortmasa, talab qabul qilingan deb hisoblanadi va umumiy tartibda to'lovn ijro etish lozim bo'ladi.

3.15. Bank va Mijoz o'rtasida axborot so'rovlarini va xabarlar almashinuvni, oborot va omonat hisobraqamlar qoldiqlari solishtiruvi natijalaridan qa'tiy nazar amalga oshirilishda davom etadi.

4. Taraflarning majburiyatlari

- 4.1 Taraflar elektron to‘lovlar tizimi texnologiyasi masalalari bo‘yicha o‘zaro ma‘lumotlar mahfiyligini saqlovinci ta‘minlashga majburdirlar. Amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.
- 4.2 Ma‘lum bir Taraf tomonidan tizim havfsizligini buzilish fakt va belgilari aniqlangani taqdirda Taraflar “Bank-Mijoz” DM orqali hisob kitobni darhol to‘xtatishlari va ikkinchi Tarafni bu haqda ogoh etishlari zarur.
- 4.3 Taraflar barcha havfsizlik va ma‘lumotlarni texnik muxofaza qilish qoidalariiga amal qilish, begona yoki ruxsatga ega bo‘lmagan shaxslarni tizimda foydalanishini hamda moliyaviy hujjatlarni imzolash huquqiga ega bo‘lmagan shaxslarni elektron raqamli imzodan foydalanishini oldini olishga majburdirlar.

5. Taraflarning javobgarligi

- 5.1 Mazkur Shartnomada keltirilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda Taraflar amaldagi qonunchilikda ko‘rsatilgan tartibda javobgardirlar.
- 5.2 Mijoz bajarilayotgan amaliyotlarning to‘g‘riligiga, pul-hisob kitob hujjatlarning elektron shaklini to‘g‘ri shakllantirishga, elektron raqamli imzoni aynan mosligi va hujjatlarni bankga aloqa kanali orqali yuborilishiga javobgardir.
- 5.3 Taraflar tomonidan qog‘oz shaklida rasmiylashtirilgan ma‘lumot elektron shaklga o‘tkaziladi, shu bilan birga qog‘oz shakldagi ma‘lumotning elektron shakldagi ma‘lumotga mos kelishiga javobgarlik hujjatni yaratgan Taraf zimmasiga yuklatiladi.
- 5.4 Mijoz tomonidan mazkur Shartnomaning 3-bo‘limida ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarilmasligi uning Bank oldida ham uchinchi shaxslar oldida ham O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik me‘yorlariga mos ravishda javobgarlikga olib keladi.
- 5.5 Bank Mijoz tomonidan shakllantirilgan elektron pul-hisob kitob hujjatlari asosida mablag‘larini hisobdan chiqarilishini va Mijoz hisob raqamiga tushirilishini to‘g‘ri amalga oshirilganligiga javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

6. Favqulotda holat

- 6.1 Taraflarning o‘z hoxishlariga qarshi o‘laroq Favqulotda holatlar va shunga o‘xshash vaziyatlar yuzaga kelgan hollarda, Taraflar mazkur vaziyat bartaraf etilgunga qadar moliyaviy hujjatlar almashinuvini to‘xtatib turadilar va iloji boricha qisqa muddat ichida har qanday yo‘l bilan mazkur holat yuzaga kelganligi haqida bir birlarini ogohlantirishlari zarur.
- 6.2 Bank tizimning tabiat hodisasi, suv toshqini, yong‘in, zilzila va favqulotda hodisalar, embargo, harbiy harakatlar, elektr quvvati o‘chirilishi, aloqa tarmog‘i liniyalarini shikastlanishi, ijtimoiy hodisa hamda boshqaruv davlat organlarining markaz yoki joylardagi Bank bajarishi uchun majburiy qarorilari sababli to‘xtatilgan hollarda Mijoz oldida javobgar hisoblanmaydi.

7. Nizolarni hal etish tartibi

- 7.1 Mazkur Shartnomada shartlarini bajarish jarayonida yuzaga kelgan kelishmovchilik va ziddiyatlar taraflarning o‘zaro muzokalarini asosida hal etiladi. Mijozning topshirig‘ini bajarish bilan bog‘liq baxsli holatni hal etilishiga qadar Bank Mijozni ogoh etgan holda bir taraflama mazkur shartnomani bajarilishini to‘xtatib turishga haqlidir.
- 7.2 Taraflar elektron raqamli imzo bilan imzolangan hujjatlar bilan bog‘liq nizolarni hal etish tartibiga bo‘ysunishga o‘zaro kelishadilar.
- 7.3 Baxsli holatlarni ko‘rib chiqish faqat aloqa kanallari orqali kelgan elektron to‘lov hujjatlari asosida ko‘rib chiq‘iladi.
- 7.4 Taraflar o‘rtasida o‘zaro kelishilmagan nizolar yuzaga kelgan taqdirda mazkur nizolar ho‘jalik sudida hal etiladi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish tartibi

- 8.1 Mazkur Shartnomada imzolangan kunidan kuchga kiradi va nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi.
- 8.2 Har ikki Taraf mazkur Shartnomani bir tomonlama muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ikkinchi Tarafni shartnomaga bekor qilinishidan bir oy avval ogohlantirgan holdagina ega.

8.3 Shartnomaning bekor qilinish jarayonida Taraflar Mazkur shartnoma va unga qo'shimchalardan kelib chiqqan barcha o'zaro majburiyatlarni bajarishlari shart. Shu bilan birga Bank "Bank-Mijoz" DM ning mijoz uchun to'xtatadi.

8.4 Mazkur Shartnomani bekor qilinishi Bank hisob raqami to'g'risidagi shartnomani bekor qilinishiga olib kelmaydi. Bank hisob raqami to'g'risidagi shartnomani bekor qilinishi mazkur Shartnomani bekor qilinishiga olib keladi.

9. Boshqa shartlar

9.1 "Bank-Mijoz" DM tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur bo'lgan hollarda Taraflarning o'zaro kelishivi asosida mazkur Shartnomaga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan o'zgartirishlar yoki qo'shimcha ilovalar kiritilishi mumkin.

9.2 Mazkur Shartnomada kelishilmagan holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik me'yordi asosida tartibga solinadi.

9.3 Haqiqiy Shartnoma bir hil yuridik kuchga ega bo'lib 2 nusxada tuzildi. Bir nusxasi Bank , ikkinchi nusxa Mijoz uchun.

10.Yuridik manzillar, Bank belgilari va Taraflar imzolari

Bank:

(m.o'.)

Mijoz:

(m.o'.)